

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ZAMONAVIY SHE’RIYATDA RUHIYAT TALQINI

Nargiza Berdirasulova

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu tezisda hozirgi zamonaviy she’riyatdagi inson ruhiyati, uning psixologiyasining ifodalanishi va talqin qilinishi xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy she’riyat, ruhiyat talqini, epitet, individualizm, tuyg‘ular simvolikasi

Zamonaviy she’riyat inson ruhiyatining chuqur qatlamlarini talqin qilish va namoyon etishda o‘ziga xos ijodiy yo‘nalishni shakllantirgan. Bu yo‘nalishda shoirlar inson qalbining nozik va murakkab holatlarini, ichki kechinmalarini, hayotiy tajribalarini yoritishga e’tibor qaratadilar. XX asr oxiri va XXI asr boshidagi ijtimoiy, siyosiy hamda madaniy o‘zgarishlar inson ruhiyatini o‘zgacha qiyofada aks ettirishni talab qildi. Natijada, zamonaviy she’riyat insonni faqat tashqi dunyo bilan emas, balki ichki olami bilan ham uyg‘un ko‘rib, ruhiy kechinmalarni ifoda etishda yangicha usul va uslublarni izlab topdi. Mazkur mavzuni o‘rganish zamonaviy she’riyatda ruhiyatning qanday talqin qilinayotgani, uning mazmun-mohiyati va badiiy ifodasini anglashga imkon beradi. She’rning ruhiyatni aks ettirishdagi o‘rni, shoirning ichki dunyosini tasvirlashdagi badiiy mahorati va bu jarayonda foydalanilgan poetik usullar she’riyatning estetik qudratini oshiradi. Shu sababli, zamonaviy she’riyatdagi ruhiyat talqini masalasi adabiyotshunoslikda muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Inson paydo bo‘libdiki, adabiyot unga hamroh. Inson esa so‘zga, uning sehriga oshiq. Aynan so‘z orqali ko‘ngil kuylarini juda go‘zal, nafis tarzda ifodalaydilar, chizadilar. Adabiyot olamida shunday bir san’at, shaffoq buloq borki, ko‘ngil undan suv ichadi, unda insonning shodlik va quvonchi, orzu va armonlari, ichki kechinmalari butun qalbi tasvirlanadi. Bu – she’riyat. She’rni tuyg‘u surati deydi, -Ulug‘bek Hamdam.

Hech bir mubolag‘asiz aytishimiz mumkinki, bugungi kun o‘zbek she’riyati yildan yilga kun sayin rivojlanib, taraqqiy etib bormoqda. Ta’kidlash joizki, biz bugun qo‘rqmasdan baquvvat o‘zbek she’riyatiga egamiz, deb ayta olamiz. She’riyat Sharqda asrlar davomida adabiyotning asosiy turi sifatida yashagani boisi ham uning ildizlari bag‘oyat teran. She’riyatda aks etayotgan ruhiyat talqini, undagi tasvir ruhiyati pafosi alohida bir mazmunga ega. Hozirgi she’riyatda voqelikni tasvirlashga qaraganda inson ruhiyatini tahlil qilishga ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Chunki, keyingi vaqtlarda inson, uning ruhiyati, psixologiyasi, ichki sezimlari hamda tuyg‘ularining ifodalalanayotganligi buning yaqqol dalilidir. Bugungi shoirlar, umuman

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

olib aytganda, adabiyot ixlosmandlari, adiblar uchun hayotiy reallik birlamchi ahamiyat kasb etmaydi. Bunga badiiy reallikni ta’minlash vositasi deb qaraladi. Bugunimizda badiiy asar qiziqarli voqea-hodisotlar, sarguzashtlar tasviridan emas, balki inson ko’nglining, inchunin uning ichki dunyosining tahlili va uni talqin qilishdan iboratdir. Har bir inson olam va odamiyatni o’zini anglar darajadagina anglay oladi.

Bugungi o’zbek she’riyatidagi insonning ana shunday ichki olamini, aniqroq aytganda, ruhiyatini ifoda etib, o’z she’rlariga jo qilmish Guljamol Asqarova va Xosiyat Rustamova she’rlarini tahlil qilamiz. “Xavotir” deb nomlanmish ushbu she’rida shoira o’z ruhiyati tasvirini quyidagicha bayon etadi

Juda baxtli bo’lgim kelyapti,
Ko’zimdan yosh quyilar kulsam.
Nima gunoh axir menda ham,
Saroblarga ishongan bo’lsam?

Bugun shundoq bir g’arib holman,
Yurak to’la qayg’uday, ohday.
Ne qilarim bilmayin lolman,
Oltinlari mis chiqqan shohday...

Ushbu she’r shoiraning yoshlik pallasida uning ayni o’ynab-kuladigan, umrining bahor fasli bo’lmish yoshlik vaqtlarida yozilgan. She’rda shoiraning qalb qo’ridan otilgan po’rtanadek tuyg’ulari jo’sh uradi. Bu esa ko’ringanidek tuyg’ular simbolikasini yuzaga chiqaradi. Shoira yoshlikning beg’ubor ostonasida shunday katta maqsadlar, niyatlar qilgan ediki, ammo uning qilgan niyatlari bir zumda sarobga aylandi. Uning yuzi shunda ham shundayin kulib tursa-da, biroq kulgan holatda uning ko’zlaridan yosh quyilib kelmoqda. Axir uning ishonganlari uning ishonchini poymol qilishdi. Aslida bunday ruhiy zo’riqish, ruhiy zarba ortidan yuzning kulib turishi bu chinakam irodalilikning real tarzdagi ko’rinishidir. Oltinlari mis chiqqan shohday deydi shoira. Shu damdagi holatini mohirona bo’yoqlar ila, mohirona tasvirlar ila baholar ekan, uni shu holicha qog’ozga tushiradi. Zotan, inson ruhiyati shunday tilsimotki, undagi individuallikni faqatgina o’zidan boshqa hech kim tushuna olmaydi.

Albatta, qahramon ruhiyati tasviri haqida so’z borar ekan, avvalo, uning asosi bo’lgan badiiy psixologizm haqida alohida to’xtalib o’tish joizdir. “Badiiy psixologizm – badiiy asarda to’laqonli inson obrazini yaratishning muhim

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

vositalaridan biri; personaj ruhiyatining ochib berilishi, xatti-harakatlari va gap-soʻzlarining psixologik jihatdan asoslanishi, shu maqsadlarga xizmat qiluvchi usul va vositalarning jami”.¹ Darhaqiqat, qahramon ruhiyati tasviri muallif niyatining, gʻoyaviy maqsadining namoyon boʻlishi demakdir. Adabiyotdagi, umuman sheʼriyatdagi personaj ruhiyati deganda personajning ongi, ongi va shaxsiyatini tashkil etuvchi ichki ruhiy va hissiy jihatlar tushuniladi. U qahramonning fikrlarini, his-tuygʻularini, motivlarini, xotiralarini va umumiy ruhiy hayotini qamrab oladi. Qahramonning ruhiyatini tushunish sheʼriyatda chuqurlik, murakkablik va oʻzaro bogʻliqlikni yaratish uchun juda muhimdir.

Ayt, meni qaysi bir yoʻlga boshlading,
Bu hayot tenglama ming bor yechilgan.
Azizim, bilaman, oppoq sochlaring,
Qora kunlarimni boshdan kechirgan.

Xosiyat Rustamova qalamiga mansub boʻlmish ushbu sheʼr oʻziga xos chuqur maʼno tashiydi. Ruhiy holat hamda poetik mantiq yaxlitligi ifoda taʼsir doirasini kengaytiradi, muallif ijodiy niyatini sharhlashga intiladi. Bu yerda qora kunlar epitetining keltirilishi, shoira hayotida roʻy bermish qora chizgilar xususida soʻz boradi. Bu hayotda bunday qiyinchiliklar, muammolar koʻp boʻlgan va ular oʻz navbatida yechimini ham topgan ekanligiga alohida urgʻu berilmoqda. Sheʼriy idrok dialog taʼsirida lirik qahramonning sezimlari, uning ruhiyatidagi sodir boʻlayotgan oʻzgarishlarni yorqin aks ettirishga xizmat qiladi. “Ruhiyatdagi nozik tovlanishlarni mantiqiy yakuniga yetkazadigan rivoya texnikasida individual qirralarni badiiy umumlashma darajasiga koʻtarishga boʻlgan mayl ustuvorlik kasb etgani holda universal belgi poetik munosabat oʻziga xosligini taʼminlaydi”.² Sheʼriyatdagi qalb kechinmasi, ruhiyatga koʻchgan nozik tuygʻularni ifodalash hamisha katta badiiy mahoratni talab qilib kelgan. Quyidagi sheʼrni tahlil qilamiz:

Aytsam ishonmaysan – borman hali ham,
Yelkamga yuklangan toʻrt fasl, toʻrt qish.
Oʻzi boʻladimi, qirq yil naridan,
Eng ogʻir yurakni koʻtarib kelish.
Charchadim.

¹ Quronov D. Adabiyotshunoslik lugʻati / D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. – Toshkent: Akademiya nashri, 2013. - 408 b.

² Matyakupov S. Hozirgi oʻzbek sheʼriyatida dialog va ritorik munosabat sintezi.–Toshkent: Firdavs shoh, 2023.–B.43.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Og‘riqlar ko‘ksimga botdi,
Bu holda dunyodan o‘taman qanday?
Yuragim to‘xtadi bir zum – Hayotning
Qo‘rqinchli joyiga yetib kelganday.

“Chinakam she’rda mantiqdan ko‘ra tuyg‘u ustuvorlik qiladi. Bunday bitikda mantiq izchilligi emas, hissiyot va kayfiyat muntazamligi aks etgan bo‘ladi. Shoir olam hodisalarining barcha odam ilg‘ay oladigan real ko‘rinishini emas, balki faqat ularning o‘z ruhiyatida qoldirgan manzarasini chizadi”.³ Ko‘rinadiki, bunda lirik qahramon 40 yillik xotiralarini yodga oladi. Hayotining og‘riqli va zalvorli kunlarini 4 fasl orqali namoyon qiladi. Ham quvonchli, ham og‘riqli kunlarini faslga qiyosan she’riyatda aks ettirish bu haqiqiy poetik mahorat talab qiluvchi hodisadir. Shu ma’noda, ifoda bilan akslantirilgan ruhiy kechinma tasvirotlarni yuzaga chiqaradi. Bu tasvirotlar esa qahramon hissiyotlarni bor bo‘yicha ko‘rsatib berishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ya’niki, qahramon bu vaqtda og‘riqlar ko‘ksimga botadi, bu holimda dunyodan qanday o‘taman deya o‘z-o‘ziga savol beradi. Bunday holatda u ruhiyatining qay ahvolda ekanligini ichki “men”i bilan dialog holatiga kirishgan tarzda talqin qilmoqchi bo‘ladi. U bir zum o‘yga toladi, men qanday yashadim, hayot yo‘llarimda o‘zimdan qanday iz, qanday xotirota qoldirdim deya mushohada qiladi. Shunda aytadi, yuragim to‘xtadi bir zum hayotning, qo‘rqinchli joyiga yetib kelgandek, deya holatini bayon qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ruhiyat, umuman inson ruhiyati, uning psixologiyasi she’rda mushkul bir hodisa sanaladi. Uni anglagan holda tahlil va talqin qilish undan ham murakkab bo‘lgan bir jarayondir. Bir she’r yozilar ekan, shoir yoki shoirlar shu yozilayotgan yohud yaratilajak bir she’rni qay holatda yozmoqda, yoki u bir hayotda ko‘rgan voqelikni chuqur mazmuniy bo‘yoqlarda aks ettirgani ifodalangan bir yaratmani har kim o‘zidan kelib chiqqan holda tahlil ham tahlil qiladi. Ruhiyat kechinmasi shunday bir jarayonki, bunda shoir yoki shoira qalbini larzaga solgan tuyg‘u umumiy hissiyotlarni yuzaga kelishiga va uni she’rda ustalik bilan chizilishiga muhim bir poydevor vazifasini o‘taydi. His qilingan voqea-hodisotlar, yozuvchi qalbini o‘rtayotgan tuyg‘ular orqali ifodalangan she’rlar esa she’riyat ixlosmandlari yoki adabiyotshunoslar uchun chinakam san’at asari bo‘ladi desak, yanglishmagan bo‘lamiz.

³ Yo‘ldoshev Q. Ochqich so‘z.–T.:Tafakkur, 2019.–B.368

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug‘ati / D.Quronov, Z.Mamajonov,
2. M.Sheraliyeva. – Toshkent: Akademiya, 2013. - 408 b.
3. Matyakupov S. Hozirgi o‘zbek she‘riyatida dialog va ritorik munosabat sintezi.–Toshkent: Firdavs shoh, 2023.–B.43.
4. Yo‘ldoshev Q. Ochiq so‘z.–T.:Tafakkur, 2019.–B.368